

O‘ZBEKISTONDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Raxmonov G'olib Axmadjonovich

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20746660>

Ma'lumki, mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida suv resurslaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va samarali boshqarish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Buning asosiy sababi respublika qishloq xo'jaligining katta qismi sug'oriladigan dehqonchilikka asoslanganligi hamda suv resurslarining iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishdagi muhim o'rnidir.

Mamlakatimizda suv xo'jaligi tizimini takomillashtirish, suv resurslaridan samarali foydalanish va suv xavfsizligini ta'minlash maqsadida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar suv xo'jaligi sohasini modernizatsiya qilish, mavjud infratuzilmani yangilash hamda suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida suv xo'jaligini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish, qishloq xo'jaligida suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini keng joriy etish, suv resurslarini nazorat qilish hamda ularning hisobini yuritish tizimini avtomatlashtirish kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suv tanqisligi sharoitida mavjud resurslardan oqilona foydalanish va qishloq xo'jaligi mahsuldorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni xalq manfaatlari yo'lida izchil davom ettirish maqsadida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi keng jamoatchilik ishtirokida atroflicha muhokama qilingan holda tayyorlandi.

Muhokamalar jarayonida xalqimiz, fuqarolik jamiyati institutlari faollik ko'rsatib, tele- va radiokanallar orqali to'g'ridan-to'g'ri efirlarda ular bilan bevosita mingdan ortiq muloqotlar tashkil etildi, fuqarolarimiz bildirgan taklif-tavsiyalar tegishli soha mutaxassislari va ekspertlar ishtirokida chuqur tahlil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida eng muhim sohalar qatorida suv xo'jaligini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish, qishloq xo'jaligiga tejamkor sug'orish texnologiyalarini keng joriy etish, suv resurslarini nazorat qilish va uning hisobini yuritish tizimini avtomatlashtirish kabi qator dolzarb vazifalar belgilab berildi. Yurboshimiz Murojaatnomasida "2020-yilda 44 ming gektar yerda yoki o'tgan yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko'p maydonda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etamiz. Buning uchun davlat budjetidan 300 milliard so'm subsidiya ajratiladi. Shuningdek, suv xo'jaligi obyektlarini boshqarish jarayonlarini, suvni nazorat qilish

va uning hisobini yuritish tizimini avtomatlashtirish zarur. Ushbu masalalar Suv xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyasida o'z aksini topishi kerak...."¹ deya ta'kidladi.

Shuningdek prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida nutq so'zlab, "Keyingi 30 yilda mintaqamizda havo harorati bir yarim gradusga ko'tarildi. Bu – dunyodagi o'rtacha isishdan ikki karra ko'pdir. Oqibatda muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi yo'qolib ketdi. Ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin yigirma yilda mintaqamizdagi ikkita yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foizga qisqarishi mumkin. Jon boshiga suv bilan ta'minlanish darajasi 25 foizga, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga kamayishi kutilmoqda. Agar o'z vaqtida ta'sirchan choralarni ko'rmasak, ushbu muammolar oqibatlari mintaqamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazadi"², deya suv tanqisligiga qaratilgan qator tashabbuslariga xalqaro jamoatchilik e'tiborini qaratdi.

Ushbu muammoga yechim sifatida Prezidentimiz tomonidan Markaziy Osiyoda suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida "Birlashgan Millatlar Tashkiloti – suv resurslari" mexanizmini ishga solib, eng ilg'or texnologiyalarni jalb etish va tatbiq qilish qo'llab-quvvatlanishi ta'kidlandi.

Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan murojatnomada ilgari surilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida qator xalqaro tashkilotlar ekspertlarini jalb etgan holda 2020–2030 yillarda suv xo'jaligini rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu Konsepsiyani tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni loyihasi tayyorlanib, O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi portali (regulation.gov.uz) hamda Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi (project.gov.uz)ga umumxalq muhokamasi uchun joylashtirilgani ham suv ta'minotini yaxshilash, shu maqsadda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, suv xo'jaligi obyektlarini boshqarish jarayonlarini hamda suvni nazorat qilish va uning hisobini yuritish tizimini avtomatlashtirish bilan bog'liq masalalarning dolzarb ahamiyatga ega ekanligidandir. Konsepsiyada mamlakatimizda aholi va iqtisodiyotning barcha sohalarini suv bilan barqaror va kafolatli ta'minlash, irrigatsiyani rivojlantirish, suv xo'jaligi infratuzilmasini va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, sohaning innovatsion salohiyatni rivojlantirish, ilm-fan yutuqlari, tejamkor sug'orish texnologiyalarini joriy qilish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion yechimlardan keng foydalanish borasidagi eng muhim vazifalar belgilab berilmoqda.

Mamlakatimizda suv xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, suv xo'jaligini modernizatsiya qilish va rivojlantirish, suv resurslarini boshqarish, suvdan tejamkorlik bilan foydalanish uchun suv xo'jaligi obyektlarining yangilanishi bugungi kunda suv xo'jaligi tizimi oldida turgan muhim masalalardandir. Bu xususda Prezidentimiz tamonidan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. www.prezident.uz.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning OBMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida so'zlagan nutqi. 2023 yil 20 sentabr. www.prezident.uz.

“Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini yanada takomillashtirish hamda suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonda ham aytib o‘tilgan. “Suv xo‘jaligi obyektlarining aksariyat qismi 30-40 yildan ortiq xizmat qilayotganligi hamda ularni loyihalashga malakali xorijiy ekspertlarni jalb qilish, ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish kabi masalalarga yetarli e‘tibor qaratilmayotganligi sababli keyingi yillarda ayrim suv xo‘jaligi obyektlarida texnogen vaziyatlar va avariya holatlar kuzatilmoqda”³.

Amalga oshirilayotgan islohatlardan bugungi kunda suv xo‘jaligi sohasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini ta‘minlash, suv resurslarini boshqarish sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, 2020-2030 yillarda suv xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiyasini o‘z vaqtida va sifatli ishlab chiqish, suv xo‘jaligi sohasidagi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar, qarzlar va grantlar jalb qilishni kengaytirish orqali suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish borasida islohatlar bosqichma-bosqich olib borilayotganini ko‘rishimiz mumkin.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. 2021 yil 6 aprel. <https://v-nadzor.gov.uz>.